



YOSHLAR SIYOSATINING SOTSIOLOGIK TAHLILI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

O'zMU Ijtimoiy fanlar fakulteti

Sotsiologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

Davronova Feruzabonu Shokir qizi

Ilmiy rahbar: "Sotsiologiya" kafedrası dotsenti,

sotsiologiya fanlari bo'yicha

sotsiologiya doktori (PhD)

Xusanova Xayriniso Tayirovna.

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekistonda yoshlar siyosatini sotsiologik nuqtai nazardan o'rganish, uning asosiy yo'nalishlari va amaliy natijalari tahlil qilinadi. Yoshlar bilan ishlash tizimida mavjud ijobiy tajribalar, dolzarb muammolar hamda ularni hal etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilmiy asosda yoritilgan. Tadqiqotda yoshlarning ijtimoiy faolligi, mehnat bozoridagi o'rni, ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning samaradorligi sotsiologik tahlil asosida o'rganilgan.*

Kalit so'zlar: *yoshlar siyosati, sotsiologik tahlil, ijtimoiy faollik, bandlik, ma'naviyat, innovatsion yondashuvlar.*

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yoshlar siyosati – har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy barqarorligining strategik omilidir. Bugungi kunda yoshlarga qaratilgan e'tibor davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida shakllangan bo'lib, ular bilan ishlashning kompleks institutsional tizimi yaratilgan. O'zbekiston Respublikasida yoshlar bilan ishlash sohasida amalga oshirilayotgan amaliy tajribalar davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Chunki mamlakat aholisi tarkibida yoshlarning ulushi yuqori bo'lib, ularning jamiyatdagi roli, ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va tafakkur darajasi bevosita davlat taraqqiyotining hozirgi va istiqboldagi holatiga ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda yoshlar masalasi nafaqat ijtimoiy yoki demografik masala sifatida, balki kengroq sotsiologik, siyosiy



va madaniy jarayonlarning markazida turadi. Shu boisdan, O'zbekistonda yoshlar bilan ishlash bo'yicha sotsiologik yondashuvlar asosida tizimli va maqsadli faoliyat olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan so'nggi yillarda yoshlar bilan davlat siyosati yangicha bosqichga ko'tarildi. "Yoshlar – kelajagimiz", "Yoshlar daftari", "Yoshlar va mahalla" kabi markazlashtirilgan tizimlar orqali yoshlar o'qitilishi, ularga kasb-hunar o'rgatilishi va amaliy ko'nikmalar berilishi, salohiyatini ro'yobga chiqarish bo'yicha samarali platforma yaratildi. Ayniqsa, "Yoshlar ishlari agentligi"ning tashkil etilishi orqali butun respublika bo'yicha yoshlar bilan ishlashning yagona institutsional mexanizmi shakllandi. Bu agentlik viloyat, tuman va shahar miqyosida joylardagi yoshlarning holatini o'rganish, ular bilan bevosita ishlash, muammolarini tahlil qilish va individual yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim vositaga aylandi¹. Yoshlar bilan ishlashdagi amaliy tajribaning asosiy ustunliklaridan biri – ularning qiziqishlari, ehtiyojlari va muammolari bo'yicha statistik va sotsiologik ma'lumotlarga asoslangan holda harakat qilishdir. Masalan, "Yoshlar daftari" orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bo'lgan, ishsiz yoki nogiron ota-onaning farzandi bo'lgan yoshlar ro'yxatga olinib, ularga kasb-hunar o'rgatish, ish bilan ta'minlash, psixologik va huquqiy maslahat berish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilmoqda. Ushbu tizim individual yondashuv va mahalla darajasida monitoring olib borish imkonini yaratdi. Raqamli platformalarning joriy etilishi esa yoshlar bilan ishlashdagi tezkorlik, aniqlik va shaffoflikni oshirdi. Amaliy tajribaning yana bir muhim yo'nalishi – ta'lim va bandlikni uyg'unlashtirishga qaratilgan. Bugungi kunda ko'plab yoshlar oliy ta'lim muassasalarida o'qish bilan birga, ijtimoiy va iqtisodiy loyihalarda ishtirok etmoqda. Kasb-hunar markazlarining faoliyati kengayib, turli yo'nalishlarda qisqa muddatli o'quv kurslari orqali yoshlar zamonaviy kasblarni egallamoqda. Ayniqsa, texnologiya, axborot tizimlari, dizayn, avtomatlashtirish kabi sohalarda talab yuqori bo'lib, bu yo'nalishlar yoshlarga yaxshi imkoniyatlar ochmoqda. O'zbekiston yoshlarining tadbirkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish ham amaliy tajribaning ajralmas qismidir. Imtiyozli kreditlar,

¹ Umarova R. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010. – 28-bet.



subsidiyalar va grantlar ajratish orqali minglab yoshlar o'z biznesini boshlash imkoniyatiga ega bo'ldi. "Har bir yoshga – bir g'oya" tamoyili asosida o'tkazilayotgan tanlovlar orqali esa ularning tashabbuslari rag'batlantirilmoqda. Bu esa yoshlarni nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy jihatdan ham o'ziga ishonchli, faol shaxs sifatida shakllanishiga yordam bermoqda. Shu bilan birga, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ma'naviyat va ma'rifatga yo'naltirish, axborot xurujlaridan himoya qilish ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan o'tkazilayotgan sport musobaqalari, madaniy festivallar, ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga, zararli illatlardan uzoq bo'lishiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilishga qaratilgan tashabbuslar, kutubxonalar faoliyatining raqamlashtirilishi va ularning jozibador muhitga aylantirilishi ijobiy natijalar bermoqda.

Biroq mavjud amaliy tajribalar bilan birga, qator muammolar ham dolzarbligicha qolmoqda. Eng avvalo, hududlar bo'yicha tengsizlik muammosi – yirik shaharlarda imkoniyatlar keng bo'lsa-da, chekka tuman va qishloqlarda yoshlar uchun kerakli infratuzilma va imkoniyatlar yetarli emas. Bu esa ular orasida mehnat migratsiyasi yoki ijtimoiy beqarorlik holatlarining ko'payishiga olib kelmoqda. Yana bir muammo – axborot savodxonligining pastligi. Ayrim yoshlar internetdagi noto'g'ri ma'lumotlar, ekstremistik va destruktiv g'oyalarning ta'siriga tushib qolmoqda. Bu esa yoshlar bilan ishlashda faqat tashkiliy tadbirlar emas, balki chuqur psixologik va ideologik ishlar ham zarur ekanini ko'rsatmoqda. Yoshlar o'rtasidagi ishsizlik masalasi ham sotsiologik tahlil qilinishni talab qiladigan muhim ijtimoiy muammolardir. Ba'zi hollarda yoshlar ta'lim olayotgan kasb bo'yicha ish topa olmayapti yoki mavjud bo'sh ish o'rinlari ularning malakasiga mos emas. Bu esa o'z navbatida malaka muvofiqligi va mehnat bozori talablarini bir-biriga yaqinlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ta'lim tizimi bilan ishlab chiqarish sohasi o'rtasida kuchli integratsiyaning yo'qligi, amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi ham muammolar sirasiga kiradi. O'zbekiston yoshlari hayotiga taalluqli muammolarni samarali hal etish uchun



ularning fuqarolik jamiyati institutlarida ularning ovozi eshutilishini ta'minlash zarur. Bu borada "Yoshlar parlamenti", "Yoshlar bilan ochiq muloqotlar", ijtimoiy so'rovlar va raqamli tahlillar asosidagi qarorlar ijobiy tajribaga ega. Ammo bunday mexanizmlarni barcha hududlarda teng rivojlantirish, yoshlarning tashabbuslarini real yechimlarga aylantirish talab etiladi.

Xulosa. O'zbekistonda yoshlar bilan ishlashda muhim amaliy tajribalar, ijobiy natijalar va ilg'or mexanizmlar mavjud. Ularning sotsiologik jihatdan tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu yo'nalishda erishilgan yutuqlar bilan birga tizimli muammolar ham mavjud bo'lib, ular chuqur ilmiy asoslangan yondashuvlarni talab qiladi. Har bir yoshning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni mehnat, ta'lim, siyosat va madaniyatda to'laqonli ishtirokchi sifatida shakllantirish – zamonaviy jamiyat oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biridir. O'zbekistonda yoshlar bilan ishlash sohasida amalga oshirilayotgan muvaffaqiyatli tajribalar jamiyatning ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqda. Yoshlar – millatning kelajagi va taraqqiyot uchun katta salohiyatga ega kuchdir. O'zbekistonda yoshlar siyosatining sotsiologik tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda ushbu yo'nalish davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, ularni mehnat, ta'lim, siyosat va madaniyat sohalarida faol subyekt sifatida shakllantirish jarayonlari tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Bu esa mamlakatda barqaror ijtimoiy tizimni shakllantirish, inson kapitalini rivojlantirish hamda yoshlar salohiyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun muhim omil hisoblanadi. Sotsiologik yondashuv yoshlar siyosatining mohiyatini chuqurroq anglash, mavjud jarayonlardagi ijtimoiy omillarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini baholash imkonini beradi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar bilan ishlashda ijobiy natijalar bilan bir qatorda tizimli muammolar ham mavjud — hududlararo tengsizlik, ishsizlik, ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi nomuvofiqlik, shuningdek, axborot makonidagi tahdidlarga nisbatan immunitetning pastligi shular jumlasidandir. Bu holat yoshlar siyosatini takomillashtirishda kompleks, ilmiy asoslangan mexanizmlarni joriy etish zarurligini taqozo etadi. Kelgusida yoshlar siyosatini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida ijtimoiy



innovatsiyalarni keng joriy etish, raqamli boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish, yoshlarning siyosiy ishtirokini oshirish hamda ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash tizimini institutsional darajada mustahkamlash lozim. Shuningdek, yoshlar bilan ishlashning sotsiologik monitoring tizimini shakllantirish orqali siyosiy qarorlar samaradorligini muntazam baholab borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, yoshlar siyosatining sotsiologik tahlili nafaqat mavjud muammolarni aniqlash, balki ularni bartaraf etishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu jarayon zamonaviy O'zbekiston jamiyatida barqaror taraqqiyot, ijtimoiy adolat va inson kapitalini yuksaltirishning muhim kafolati sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Farfiyev B.A., Nurullayeva U. Sotsiologiya tarixi. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent: Universitet, 2009. – 192 b.
2. Jiyanmuratova G.Sh. Sotsiologiya tarixi. Darslik. – Toshkent: Universitet, 2020. – 465 b.
3. Umarova R. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. – T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2010. – 108 bet.
4. Saïtxodjayev H.B. Sotsiologiya: Ma'ruzalar kursi. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – 169 b.
5. Alimqoriev M.S. Umumiy sotsiologiya. – T., 1999. – 192 b.
6. Jalilov T. Yoshlar sotsiologiyasi. – T.: Iqtisodiyot, 2016. – 312 b.
7. Muhammedov K. O'zbekistonda sotsiologik tadqiqotlar: nazariy va amaliy muammolar. – T.: Universitet, 2008. – 275 b.
8. Norboyeva Z.M. Zamonaviy O'zbekiston: yoshlar siyosati va sotsiologik yondashuvlar. – T.: Innovatsiya, 2022. – 198 b.
9. Sayfullayeva M.X. Ijtimoiy jarayonlar sotsiologiyasi. – T.: Akademnashr, 2018. – 266 b.
10. Sodiqov E. Sotsiologiya asoslari: O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-Moliya, 2011. – 200 b.



11. Xodjayev Sh. Sotsiologiyaning metodologiyasi: Ijtimoiy inqirozlar. – T.: Akademyashr, 2010. – 180 b.
12. Shukurov R. Ijtimoiy tizimlar va ularning rivojlanish dinamikasi. – T.: Sharq, 2015. – 235